

SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF ASARLARINING O‘LKA AHOLISINING ILMIY SALOHIYATINI OSHIRISHDAGI O‘RNI

Saydullayev Nurmuhammad Ziyodulla o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Islom sivilizatsiyasi (Tarix)yo‘nalishi

2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali yurtimiz faxri, islom olamida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan olim shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf asarlarining o‘lka aholisining ilmiy salohiyatini oshirishdagi o‘rni, asarlarining musulmonlar hayotida qanchalar ahamiyatli ekani borasidadir.

Kalit So‘zlar: Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi, “Mus’hafi Usmon” nusxasi, buyuk allomalar, hadisi sharif, Liviya “Islomiy da’vat” universiteti, 37 juzdan iborat bo‘lgan “Hadis va hayot” majmuasi, Mansur Ali Nosifning “At-Tojul jome’ lil usul fiy ahodisir-Rasul” nomli hadis kitobi.

Zaminimiz azaldan buyuk allomalar, mutafakkirlar, turli xil sohalarda yangiliklarni kashf etgan olimlarga beshik bo‘lgan diyordir. Imom Buxoriy, imom Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Abu Mansur Moturidiy, Abul Muin Nasafiy, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi buyuk ajdodlarimizning merosi ma’naviy boyligimiz asosini tashkil etadi. Ularning birlari hadis ilmida peshqadam zotlardan sanalsa, yana biri kalom ilmida tengsiz olimlardan hisoblangan. Boshqasi esa tabiiy va jug‘rofiy ilmlarni puxta egallagan qomusiy allomalardan bo‘lishgan.

Ana shunday zabardast siymolardan biri, islom ilmlarining deyarli barcha sohasida qalam tebratgan taniqli olim, shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahmatullohi alayhdir. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bir hadisi shariflarida: **“Alloh taolo ushbu ummatga har yuz yilda Uning dinini yangilaydigan bir odamni yuboradi”**, - deganlar. Hazrat rahimahulloh ham yuqoridagi hadisda zikr qilingan olimlardan edilar. Sababi u zot dinimizning mo‘tabar manbalarini xalqqa sodda, xalqchil usul bilan ilmiy asarlari orqali yetkazdilar.

Shayx Muhammad Sodiq Muxammad Yusuf 1952-yil 15-aprelda Andijon viloyatining Buloqboshi tumanida tavallud topgan. U o‘rta maktabni tugatgach, 1970-yilda Buxoro shahridagi Mir Arab madrasasiga o‘qishga kiradi. 1971-yilda Toshkent islom instituti ochilganida, ushbu dargohda ilm tahsilini davom ettiradi. 1975-yili institutni tamomlab, “Sovet Sharqi musulmonlari” jurnaliga ishga kiradi. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy idorasi yo‘llanmasi bilan 1976-1980-yillar oralig‘ida Liviyada “Islomiy da’vat” universitetida o‘qiydi. 1980-yildan diniy idoraning tashqi aloqalar bo‘limida ish faoliyatini davom ettiradi hamda Toshkent islom institutida tafsir, hadis ilmi va arab tili fanidan dars beradi. Mazkur institutda dastlab prorektor, so‘ngra 1987-1989-yillarda rektor bo‘lib ishlaydi.

Ma’lumki, mustaqillikgacha milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan tabiiy intilish johilona inkor etilar edi. Sababi dunyo tamadduniga o‘z aql zakovati ila o‘chmas nom qoldirgan buyuk shaxslarni yetishtirib chiqargan bu zamin Sovet hukumati qo‘l ostida edi. Mustabidlar madrasada ilm olishni, masjidida ibodat qilishni eskilik sarqiti deya atashardi. Bu g‘oya sekinlik bilan xalq ongiga singdirila boshlandi va buning natijasida esa yosh avlod ham mana shu kayfiyatda tarbiyalanar edi.

Tashkilotlar va ta’lim dargohlarida aynan ramazon oyida barcha majburan suv ichirilib, bu buyruqdan bosh tortganlarga turli xil usulda jazolar qo‘llanilgan. Diniy bayramlar bekor qilingan, islomning ko‘hna tarixiga toshlar otilgan, milliy qadriyatlarimiz esa oyoqosti qilingan. Partiya a’zosi bo‘lgan musulmonlar hattoki o‘z oila a’zolarining ham janozasida qatnasha olmagan. Mana shunday og‘ir vaziyat

bo‘lishga qaramasdan o‘z jonini xatarga qo‘yib millat dardida kuygan fidoiylar chiqib, dinimniz sofligini diniy ta’limni saqlab qolishga harakat qildilar.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasining muftiysi (1989-1993) etib saylandilar. Endi hazratning zimmasiga yanada ma’suliyatli vazifa yuklangan edi. Vaziyat og‘ir, ma’suliyat undan ham og‘ir edi. Birinchi qilgan ishlari “Mus’hafi Usmon” nusxasini musulmonlarga qaytardilar.

O‘sha davdra masjid-madrasalar tang holatda edi lekin shunga qaramasdan, shayx hazratlari kurslar ochib, imom-xatiblarni tayyorlashni yo‘lga qo‘ydi, sababi malakali diniy kadrlar yetishmas edi. Albatta, shundan so‘ng ayol-qizlarni ham diniy tahsil olishlari uchun qo‘shimcha kurslar tashkil qilindi. Chunki yurt koriga yaraydigan barkamol shaxsni tarbiyalash hamma davrda ham onalar zimmasida bo‘lgan.

Xalqimizda **“Ko‘pchilik, uning xizmatida bo‘layotgan kishi ulug‘ emas, o‘zi ko‘pchilikning xizmatida bo‘lgan ulug‘dir”** degan juda ham purma’no hikmat bor¹. Shayx hazratlarining ibratli hayot yo‘llariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bitta olimning musulmonlar uchun qilgan xizmati nihoyatda salmoqli bo‘lganiga barchamiz guvohmiz. Bugun u zotning hayotlari bilan tanishgan inson qisqa vaqt mobaynida katta bir jamoalar qilishi amrimahol bo‘lgan ishlarni, amru ma’ruf-nahiy munkarlarni amalga oshirib ketdilar. U insonning kitoblari kirmagan, vaz-nasihatlari yangramagan birorta xonadon qolmadi. Ayniqsa, u zotning ramazon oyidagi oynayi jahon orqali sermazmun suhbatlari bilan xalqimizning qalbini zabt etgan edi.

Shayx hazratlarining eng katta maqsadlari esa o‘lka aholisining ilmiy salohiyatini oshirish edi. **“Yuragi boshqalar uchun uradigan kishilargina haqiqiy ulug‘ zotlardir”**, degan ekan adiblardan biri.² Shayx hazratlari ana shunday fidoiy insonlardan edi.

¹ Ahmad Muhammad Tursun. Muhammadga sodiq Muhammad Sodiq – Toshkent: “HILOL-NASHR” nashriyot matbaasi, 2021. – B.5

² Ahmad Muhammad Tursun. Muhammadga sodiq Muhammad Sodiq – Toshkent: “HILOL-NASHR” nashriyot matbaasi, 2021. – B.6

Hadisi sharifda **“Alloh kimga yaxshilikni ravo ko‘rsa, uni dinda faqih (din olimi) qilib qo‘yadi”**, - deyilgan. U kishi asrimizning tom manodagi buyuk olimi edilar.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning kitoblarini qo‘lga olib mutolaa qilar ekanmiz, ularning hammasi o‘ta muhim mavzularni qamrab olganiga guvoh bo‘lamiz.. Mazkur kitoblarning barchasi hayotimiz davomida duch keladigan ham dunyoviy ham diniy mavzudagi savollarga javob o‘laroq yozilgandir, desak adashmaymiz. Men shayx hazratning birgina kitobini misol tarqasida keltirib, uning nechog‘lik muhim ahamiyat kasb etishini takidlab o‘tmoqchiman.

37 juzdan iborat bo‘lgan “Hadis va hayot” majmuasi Mansur Ali Nosifning “At-Tojul jome’ lil usul fiy ahodisir-Rasul” nomli hadis kitobining tarjimai va batafsil sharhi hisoblanadi. Allohning inoyatini qarangki, shayx hazratlari bu kitobni xuddi Imom Buxoriy “Jome’us-sahih”ni yozganlari kabi, Payg‘ambarimiz Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ravzalari yonida turib yozganlar³. Muallif to‘plamda musulmon hayoti uchun zarur bo‘ladigan barcha shar‘iy masalalarni hadislardan misollar keltirish orqali ochib bergan. Kitobda avval hadisning o‘zi, keyin uning tarjimai, keyin bizning mazhabimiz asosidagi sharhi, roviylar haqida qisqacha ma‘lumot, so‘ngra ushbu hadisdan olinadigan foydalar va hukmlar tartib bilan keltirib o‘tilgan. Kitobning yana bir o‘ziga xos jihati shundaki, hadislar takror kelmaydi, aynan kitob juzlarining nomlariga mos holatda moslashtirib yozilgan va o‘quvchiga tushunishi uchun sodda holatda yetkazilgan.

Muborak hadislarning birida Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam - **O‘zi ilmni o‘rgangan va o‘zgalarga ham o‘rgatgan kishini – o‘ziga suvni singdirib, so‘ngra ko‘plab o‘t-o‘lanlarni o‘stirgan yerga o‘xshatganlar. Ilmga e‘tibor bermagan kishini esa – mo‘l yomg‘ir yog‘sa-da, na suv to‘plamaydigan, na ekin o‘stirmaydigan tekislikka qiyoslaganlar.** Darhaqiqat, ilm o‘rgatuvchi ko‘pchilikga kerakli inson bo‘lib, undan atrofdagilarga hamisha manfaat yetadi. Ammo, ilmga qiziqmaydigan, bee‘tibor kishining na o‘ziga va na boshqalarga foydasi bo‘ladi.

³ Muhammad Amin Muhammad Yusuf. Islomga bag‘ishlangan umr – Toshkent: “HILOL-NASHR” nashriyot matbaasi, 2020. – B.165

Marhum ustoz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahmatullohi alayh o‘zlari qoldirgan boy ilmiy, diniy-ma’rifiy meroslari bilan musulmonlar qalbida abadiy yashaydilar. Bizlarga esa bu xazinani asrab-avaylashni, o‘qib-o‘rganishni va kelajak zuriyotlarimizga ham ulardan unumli foydalanishlari uchun maslahat berib borishimizni Yaratgan Egam nasib etsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Muhammad Amin Muhammad Yusuf. Islomga bag‘ishlangan umr – Toshkent: “HILOL-NASHR” nashriyot matbaasi, 2020. – B.184
2. Ahmad Muhammad Tursun. Muhammadga sodiq Muhammad Sodiq – Toshkent: “HILOL-NASHR” nashriyot matbaasi, 2021. – B.256